

BOLALARDA YOSH XUSUSIYATLARI DOIRASIDA PSIXOLOGIK INQIROZNING VUJUDGA KELISHI HAMDA BARTARAF ETISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK YECHIMLARI

Taylaqova Saida Lapasovna
Jizzax viloyati Zomin tumani
29-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya. Inqiroz - rivojlanishdan orqaga ketish, tanazzul. Har qanday ob'yekt o'zining rivojlanishi mobaynida paydo bo'lish, ulg'ayish, pasayish va halok bo'lish bosqichlaridan o'tadi.

Kalit so'zlar: inqiroz, krizis, go'daklik, ilk bolalalik, maktabgacha yosh, kichik maktab yoshi, o'smirlik, o'spirinlik, ruhiy rivojlanish, psixik jarayonlar, muloqot, ong, tafakkur, mulohaza

KIRISH.

Inqiroz- rivojlanishdan orqaga ketish, tanazzul. Har qanday ob'yekt o'zining rivojlanishi mobaynida paydo bo'lish, ulg'ayish, pasayish va halok bo'lish bosqichlaridan o'tadi. Har qanday tizim (ob'yekt)ning nisbatan yuqori darajada shakllangan holatidan quyi darajadagi holatga o'tish jarayoni inqiroz davri deyiladi.

Bola o'sishi davomida bir davrdan boshqasiga o'tayotganda inqiroz (krizis) bosqichini boshidan kechiradi. Ko'pchilik psixologlarning fikriga ko'ra, bu tabiiy holat va o'z harakatlaridan o'zi aziyat chekadi, lekin o'zini boshqara olmaydi. Mutaxassislarning aytishicha, bu davr uzoq davom etmaydi. Psixologlarning aksari bu bola rivojlanishi uchun zarur davr deb ta'kidlashadi.

Chunki bu davrda bolalar o'z fikrlarini o'tkazishni o'rganishadi.



- 11-15 yosh inqirozi (o'smirlik davri)

► Shu paytgacha bola o‘zini ota-onasi bilan bir butun deb his qilgan bo‘lsa, endi unda o‘z “men”i shakllanayapti.

► O

‘ ► Masalan, “shirguruch yemayman”, “uxlamayman” deya qilinayotgan zo‘polonlar bolaning hayotida yangi palla boshlanayotganligidan darak bo‘lishi mumkin.
i

y ► Bolalarning ongida o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, harf taniy boshlashadi atrof-
q muhit haqidagi ma’lumotlardan boxabar, matabga chiqqan, kundalik jadvali o‘zgargan

s ► O‘zgarishlar yangiliklar ta’sirida esa qaysargina bo‘lib qolgan bo‘lishadi.

Yosh inqirozi (o‘smirlilik davri):

a ► O‘smirlar bola bo‘lib bola, katta odam bo‘lib katta odam emas.

m ► Fiziologik jumladan, gormonal hamda psixologik o‘zgarishlar o‘smirlilik

n

q

kekksalikka o‘tish davri.

r ► Sochlarga oq oralagan, “hastaliklar” “eshik qoqishni” boshlagan davr.

b

z Biz bilamizki, bugungi kundagi ta’lim va tarbiya jarayonidagi o‘qituvchi va tarbiyachilarga juda katta talablarni qo‘yilmoqda. Hozirgi davrida ota-onalarning o‘z farzandlari bilan munosabatida bir qancha muammolarning yuzaga kelishi yosh davrlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hamda ma’lum davrlarda inqiroz davrlarini yilmasliklari sabab bo‘lmoqda. Har bir yosh davrdan keyingi davrga o‘tishda bola shaxsida inqirozli o‘zgarishlar yuzaga keladi. Buni tarbiyachi va o‘qituvchilar yaxshi bilishi, ularning individual xususiyatlariga mos xolatda bola shaxsi bilan munosabatda bo‘lishi zarur, ayniqsa ma`lum davrdagi inqirozlar boshqa davrlarga nisbatan har bir bolalarda bir yununcha og‘irroq kechadi.

a Psixolog olimlar tomonidan inqiroz davrlarini “qiyin davr”, “psixik rivojlanishdagi krizis”, “o‘tish davri” kabi nomlarni olgan psixologik ko‘rinishlari bilan o‘rganilib, bola shaxsi to‘g‘ilgan vaqtidan boshlab to balog‘at yoshigacha bo‘lgan davrdagi inqirozli xolat va o‘zgarishlarni rus psixolog olimi L.S.Vigotskiy ishlarida ko‘rsatib berilgan. L.S.Vigotskiy rivojlanish davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratadi:

1. Chaqaloqlik davri inqirozi.

o 2. Go‘daklik davri - 2 oylikdan 1 yoshgacha. Bir yoshdagidagi iqiroy.

‘ 3. Ilk bolalik davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha - 3 yoshdagi inqiroz.

4. Maktabgacha davr – 3 yoshdan 7 yoshgacha - 7 yoshdagi inqiroz.

5. Maktab rivojlanishi davri - 8 yoshdan 12 yoshgacha - 13 yoshdagi inqiroz.

6. Pubertat (jinsiy yetilish) davri - 14 yoshdan 18 yoshgacha, 17 yoshdag'i inqiroz.

Yuqorida ko'rsatilgan rivojlanishdagi inqirozli vaziyatlardan kelib chiqib har bir davrda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni quyidagicha izohlab ko'rsatamiz.

1. **Chaqaloqlik davri inqirozi (0-2 oygacha).** Tug'ilish arafasida bolaning tashqi muhitga moslashuvi. Ichki (biologik) va tashqi (ijtimoiy) omillar keskin o'zgaradi. Inqiroz holatlarda emish, nafas olish, yig'lash kabi reflekslar o'zgaradi. Tashqi muhitga sezgirlik ortadi, sensor faoliyat boshlanadi. Yangi tug'ilgan chaqaloqning psixologik hayotidagi inqirozning xarakterli tomoni kulgu bilan ko'z kontakti gavdalanadi va shu bilan birga chaqaloqlik davrida psixofiziologik rivojlanishi murakkab jarayon hisoblanadi. Bolaning ona qornidalik davriga nisbatan atmosferadagi hayot bola uchun qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu davrni L.S.Vigotskiy tomonidan "Tug'ilish inqirozi" deb atagan. Bola burun, quloq, o'g'iz umuman terilarda ona qornidagi suyuqliklar mavjud bo'ladi. Tashqi dunyoga moslashish jarayoni bolaning qay darajadagi sog'lomligiga bog'liq bo'lib, tashqi dunyoda bola yaqinlari bilan yig'i orqali, emotsiyal munosabat muloqotga kirishadi. Shartsiz reflekslar shartli refleksga aylanishga yaqinlarini tanish orqali yuzaga keladi. Bola yaqinlariga bo'lgan munosabatni turli emosional holatlar orqali ifoda etadi. Bunday xolatlarda bolaning tana vazni tug'ilganiga nisbatan pasayib tashqi dunyoga moslashish yuzaga keladi. Bu xolatda ota-onalik bolaga mehr, iliqlik berishi bolaning ishonchli kontaktni rivojlantirish (teriga tegish, gapirish) zarur.

2. **Go'daklik davri inqirozi (2 oydan 1 yoshgacha).** Bola hayotdagi 1 yosh bo'lgan davr ham inqirozli davr hisoblanadi. Chunki bir yoshga to'lgan bola yurishni boshlashi, undagi fazoni idrok etish jarayonining o'zgarib borishi, inqirozni vujudga keltiradi. Harakat, sezgi, nutqning dastlabki shakllari paydo bo'ladi. Ijtimoiy muloqot kuchayadi. Inqiroz holatlarda: Bola mustaqil ravishda harakat qilishi, emotsiyal portlashlar (yig'lash, injiqlik) kuchayadi. Ota —ona bola bilan birga harakat qilish imkoniyatini berish (emaklashga, yurishga yordam). Oddiy so'zlar, ismlar bilan muloqot qilish.

3. **Ilk bolalik davri inqirozi (1-3 yoshgacha)** Ilk bolalalik davri inqirozi 3 yoshdag'i inqiroz: bola hayotidagi keyingi inqiroz davri 3 yoshgacha inqirozdir. Birinchi navbatda 3 yoshdag'i inqirozni ijtimoiy aloqalarga bog'liqligini L.S.Vigotskiy o'z ishlarida ko'rsatib o'tgan. Chunki bu davrda inson zotiga xos eng muhim sifatlari xarakter xislati, atrof-muhitga, o'zgalarga munosabat xulq-atvor, tafakkur va ong kabi psixik aks ettirishning turli ko'rinishlari shakllanadi. Uning mustaqil harakat qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi. 3 yoshda bola o'zini kattalar bilan taqqoslay boshlaydi va kattalar qilishi mumkin bo'lgan, ular bajara oladigan harakatlarni bajarishga intiladi. Bola o'zini mustaqil harakat qila olishini anglagan vaqtidan boshlab, unda "o'zim qilaman" boshlanadi va bu yana qaysarlik, o'jarlik tarzida ko'rindi. Bu davrdagi inqiroz bola shaxsining ma'lum darajada rivojlanganligi va kattalar bajaradigan xatti-harakatlarni qila

olmayotganligini anglashi natijasi hisoblanadi. Inqiroz davrida yuzaga keladigan iroda, layoqat va boshqa bir qancha xususiyatlar uni shaxs bo‘lib shakllanishiga tayyorlaydi. Bu davrda bola bajaradigan ishlarni o‘ziga xos tarzda bajartirish inqirozni bir muncha osonroq kechishini taminlaydi. 3 yoshga kelib bola o‘zini kattalar bilan taqqoslay boshlaydi va kattalar qilishi mumkin bo‘lgan, ular bajara oladigan harakatlarni bajarishga intiladi. Ilk bolalik davrida bolaning “Meni” shakillana boshlaydi. O‘zini boshqalarga taqqoslay boshlaydi va o‘zini baholaydi. Inqiroz holatlari: "O‘zim qilaman" fazasi — qarshilik, injiqliklar ko‘payadi. Ota-onaga qarshi chiqish, mustaqil harakat qilish istagi bilan namoyon bo’ladi. Tavsiyalar: sabrli bo‘lish, bolani mustaqil harakat qilishga ro‘xsat berish. Cheklovlar o‘rniga imkoniyatlar yaratish bilan bog‘liq. Sabablar: nutqning rivojlanishi, mustaqillik istagi, harakatlari kuchayadi.

4. Maktabgacha davr inqirozi (3-7 yoshgacha) Maktabgacha yosh davri inqirozi Maktabgacha tarbiya yoshidagi inqirozning tavsifnomasi haqida Maktabgacha yosh davrida bola o‘zini jismoniy alohida mustaqil individ sifatida anglashdan, o‘z hissiyotlari va kechinmalarini anglashgacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tadi. Bu hissiyotlar aniq faoliyat turi bilan bog‘liq. Bola o‘z hissiyotlari va kechinmalarini umumlashtirish asosida o‘z-o‘ziga munosabatda bo‘la boshlaydi. Shu bilan birga uyda quyidagi xulq-atvorni namoyon etadi:

□ bolaga gapirilgandan so‘ng javob reaksiyasi orasida tanaffusning paydo bo‘lishi (“o‘zini eshitmaganday tutishi”, “yuz marta qaytarish kerak”);

□ ota-onada buyurilgan ishni bajarishda vaqtini cho‘zish; “quloq solmaslik” odatiy ishlarni va burchlarini bajarishdan bosh tortish sifatida;

□ “kichkina boladay” ko‘rinmaslik uchun o‘zining tashqi ko‘rinishi va kiyimiga qattiq e’tibor berish.

Qaysarlik, talabchanlik, injiqlik, berilgan va’dani qayta-qayta eslatish, tanqidni ko‘tara olmaslik, maqtovni kutish kabi xulq - atvor shakllari ham kuzatiladi.

Inqirozning ijobjiy tomonlariga quyidagilarni kiritish mumkin: kattalar bilan muloqotga qiziqish, unga yangi mavzularning mohiyati (siyosat, boshqa mamlakatlar va planetalardagi hayot, maktab haqida, axloqiy tamoyillar haqida); shaxsiy qaroriga ko‘ra o‘ziga ajratilgan majburiyatlarni bajarishda va sevimli mashg‘ulot bilan shug‘ullanishdagi mustaqillik bilan bog‘liq. Xulq-atvordagi bunday xususiyatlarining psixologik mazmuni shundaki, bolaning o‘zi tomonidan mustaqil tashkil etilgan harakatlarning ichki qadriligidini oshirish, qoidalarni anglashdan iborat. Eng muhim tuzilmalardan biri muhim ijtimoiy mavqeni egallash qobiliyati, ijtimoiy harakat qilish ehtiyojidir. Sabablar: ijtimoiy rollar aniqlanadi, imitatsiya (o‘yin, taqlid) rivojlanadi. Axloqiy me’yorlar shakllana boshlaydi. Inqiroz holatlarda: ko‘p savollar, fantaziya kuchayadi. Ruxiy to‘qnashuvlarda yolg‘on gapirish, bo‘ysunmaslik. Tavsiyalar: rolli o‘yinlarni rag‘batlantirish asosida axloqiy tushunchalarni oddiy sabablar orqali tushuntirish zarur.

5. Maktab davri inqirozi (7-12 yosh). Maktabda o'qishning boshlanishi 7 yoshda bo'ladigan keyingi fiziologik inqiroz bilan mos keladi. L.S.Vigotskiy bu yoshdagi inqrozni 7 yosh inqirozi deb atagan va bola xulq-atvori hamda xarakteridagi o'zgarishlarni ko'rsatib o'tgan. Bolaning xulq-atvorida bolalarcha bevositalik yo'qoladi. Inqirozning belgilari sifatida jarohatlaydigan kechinmalardan (travmalardan) himoya qilish funksiyasini bajaradigan harakatlarning ko'pligi, qiliq qilish, masxarabozlik qilishda namoyon bo'ladi. Bola organizmida jadal bo'yning o'sishi, ichki organlarning kattalashuvi, vegetativ o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan keskin endokrin o'zgarishlar ruy beradi. L.S.Vigotskiy ishlarida ko'rsatilishicha bu yoshdagi inqirozni 2 ta asosiy ko'rinish bilan ajralib turishi izohlanadi. Bolaning maktab ta'limiga psixologik tayyorlanishining sub'yektiv jihat shundan iboratki, uning maktabda o'qishga xohishi, intilishi, katta yoshdagi odamlar bilan uzviy bog'liqdir. Bu davrda bola maktab jamoasi a'zolarining ma'suliyatli vazifalarini anglaydi va ularga itoat qilishga, ularning ko'rsatmalarini bajarishga moyil bo'ladi, lekin bolalarning hammasi bir xil emasligi sababli ular o'rtaida muhim farqlar vujudga keladi. Ba'zi bolalar maktabga butun vujudi bilan talpinadi, boshqa bir bola esa maktebdan qatiy voz kechishga borib yetadi. O'qishga salbiy munosabat ko'pincha kattalarning qo'rqtishlari oqibatida vujudga keladi. Bola bog'cha sharoitidan maktab sharoitiga ko'nikishi qiyin bo'ladi. Ularda endi darsga nisbatan mas'uliyatli bo'lish talab qilinadi. Bolaning ijtimoiy munosabatlar tizimi va faoliyatidagi kardinal o'zgarishlar uning organizmidagi barcha tizimlar va funksiyalaridagi o'zgarishlarga to'g'ri kelib, boladan kuchli zo'riqish va o'z ichki imkoniyatlaridan to'liq foydalanish zaruriyatini taqozo etadi. Bunda bolaga uning imkoniyatlariga asoslanib munosabatda bo'lish bu inqirozni bartaraf etishda yordam beradi. Sabablar: bilim olish ehtiyoji ortadi, o'qish va mehnat faoliyati markaziy o'rinni egallaydi.

Inqiroz holatlari: O'ziga past baho berish, o'zaro solishtirish, o'qishga qiziqish yo'qolishi yoki bosimga sezuvchanlik yuzaga keladi.

Tavsiyalar: maqtov va qo'lab-quvvatlash orqali motivatsiyani oshirish. Shaxsiy yutuqlarni tan olish.

6. Pubertat (o'smirlik) davri inqirozi (12-18 yosh) O'smirlik davri o'z nomi bilan "o'tish davri", "krizis davr", "qiyin davr" deb nomlanadi. Bu yoshdagi o'smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o'z o'rmini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. O'z davrida L.S.Vigotskiy bunday xolatni "psixik rivojlanishdagi krizis" deb nomlagan.

O'smirlik davriga ko'pincha so'zga kirmaslik, o'jarlik, tajanglik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, urishqoqlik kabi xususiyatlar xosdir. Ko'pgina o'smirlarda o'zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. Shuningdek mavjud fikrlarining bugun unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga to'g'ri kelmayotganligi o'smirni asabiyashishiga olib keladi. Unda juda ko'p noqulay va tashvishga tushuvchi xolatlar kuzatiladi. Bu esa o'smirda o'zi haqida salbiy fikr va qo'rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Ba'zi o'smirlarni nima uchun

atrofdagilar, kattalar shuningdek, ota-onasiga qarshi chiqayotganligini anglay olmayotganligi tashvishga soladi. Bu holat ularni ichdan asabiy lashishlariga sabab bo‘ladi va o‘smirlilik davri krizisi yuzaga keladi. Inqiroz boladagi mavjud tushkunlik, yodg‘izlikka intilish, passivlik yoki aksi, o‘jarlik, qaysarlik, agressivlik, hayotga salbiy munosabatlarning yuzaga kelishi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu krizis o‘smirning ma’naviy o‘sishi, shuningdek psixikasidagi o‘zgarishlar bilan ham bog‘liqdir. Bunday paytlarda u o‘zi singari katta fiziologik, psixologik o‘zgarishlar kechayotgan o‘rtog‘i bilan muloqot qilishga katta ehtiyoj sezadi. O‘smirga uning yonidagi o‘rtog‘ini ta’siri katta ahamiyatga ega bo‘lib, uning yomon yoki yaxshi kishilarga qo‘shilishi va axloqiy qiyofasi shu o‘rtog‘ining munosabatlarida namoyon bo‘ladi.

O‘smirlilik davri inqirozi rivojlanishning eng muhim va murakkab bosqich bo‘lib, an’naviy ravishda uch bosqichdan iborat:

- 1) avvalgi eski odatlar, stereotiplar, tuzilmalarni qulashi;
- 2) inqirozning avj nuqtasi (o‘smirlilik davrida - bu 13 yosh, lekin bu shartli);
- 3) inqirozdan keyingi bosqich, ya’ni yangi tuzilmalarning shakllanish va yangi munosabatlarni o‘rnatish davri.

Katta o‘smirlar o‘zlariga beradigan baho bilan atrofdigilarni ularga beradigan bahosini qiyosiy tahibili natijasida o‘zlarini ob‘ektivroq baholay boshlaydi. Bu o‘smirlilik davridagi psixik yangilanishning ko‘rinishi o‘z-o‘zini takomillashtirish uchun zarur. O‘z taqdirini o‘zi belgilashga psixologik tayyorlikda, shubhasiz, o‘z-o‘zini anglash yetakchi rol o‘ynaydi: o‘z fazilatlarini anglash va ularni baholash, o‘zining haqiqiy va orzu qilingan “Men”i haqidagi tasavvurlar. Avvaliga o‘zining erkinligi, istak va intilishlarining cheklanishiga nisbatan yashirin, keyin esa ochiq norozilik bildiriladi. Bu xuddi ilgari ko‘rsatilgan itoatkorlik uchun qasos sifatida boshlanadi. Shaxs ichidagi nizoni rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Sabablar: jinsiy va shaxsiy identifikasiya kuchayadi. Mustaqillikka intilish, hayotiy maqsadlarni shakllantirish zarur. Inqiroz holatlari: Otaonalar bilan ziddiyatlar, ko‘ngilsizlik, o‘ziga ishonchsizlik, rad etish hissi, boshqalar bilan munosabatdagi muammolar yuzaga keladi.

Tavsiyalar: Suhbatlar orqali dardini eshitish, mustaqillikka rag‘bat, lekin chegaralarni belgilash. Ota-onalar, o‘qituvchilarga o‘smir bilan munosabatda quyidagi tavsiyalarni taklif etamiz. 1. O‘smir bilan munosabatda unga boladek emas balki kattalarga qilanadigan munosabatni yuzaga keltirish;

2. O‘smirning bekorchi bo‘lib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik;
3. O‘smir shaxsining qiziqishlarini albatta hisobga olish;
4. Ma’suliyatli vazifalarni yuklash.
5. Har bir ota- ona o‘smir bilan munosabatda dilkash bo‘lishi. Uning rejalarini qiladigan ishlarini doimo so‘rab turishi noto‘g‘ri qilgan ishlarini asoslab taxlil qilish; 6. O‘smir shaxsini o‘zini-o‘zi tarbiyalashga o‘rgatish yaxshi natija beradi.

XULOSA

L.S. Vigotskiy inson psixik rivojlanishini izchil va tizimli jarayon deb qaraydi. U har bir rivojlanish bosqichida yuzaga keladigan inqiroz holatlarini tabiy, zaruriy o‘zgarishlar deb hisoblaydi. Bu inqirozlar: bola ichki va tashqi muhitga moslashayotganidan, yangi psixologik fazilatlar shaklanayotganidan, mustaqilikka, ijtimoiylikka intilish kuchayayotganidan dalolat beradi deb ko‘rsatadi. Shunday inqiroz holatlariga to‘g‘ri yondashuv bolaning sog‘lom shaxs bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi. Shuning uchun ota-onalar va pedagoglar har bir bosqichning xususiyatini tushunishi, bolaga mehr bilan yondashishi, sabrlilik, munosabatda iliqlik va ijobiy qo‘llab-quvvatlash orqali yordam berishi lozim. Bu yondashuv nafaqat rivojlanishdagi qiyinchiliklarni yengishda, balki bolada sog‘lom psixik rivojlanishni, ijtimoiylashuv va mustaqillikni shakllantirishda asosiy omil bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘oziyev E. Ontogenez psixologiyasi. Тошкент, Noshir., T 2010.
2. Do‘stmuhamedova Sh.A., Z.T.Nishonova, S.X.Jalilova, Sh.T.Karimova, Sh.T.Alimbayeva “Yosh davrlari va pedagogik psixologiya” Toshkent. Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi. 2013.
3. Ниетбаева, Гульмира, and Диляром Салиева. "ВЛИЯНИЕ ВНУТРЕННЕЙ И ВНЕШНЕЙ МОТИВАЦИИ НА УРОВЕНЬ САМОСТОЯТЕЛЬНОСТИ ШКОЛЬНИКА." Вестник КазНПУ имени Абая. Серия: Психология 78.1 (2024).
4. Рахмонова, О. О., Д. А. Салиева, and Г. Б. Ниетбаева. "Psychological aspects of directing students to professions in the educational process." Вестник КазНПУ имени Абая серия «Специальная педагогика» 71.4 (2022): 126-130.